Qabul qilindi: 21-sentabr • Ma’qullandi: 25-sentabr • Nashr qilindi: 29-sentabr

FORTEPIANO SADOLARIDA KAMOL TOPAYOTGAN ISTE’DOD: AZIZAXON RO‘ZIYEVANING IJODIY YO‘LI

Tojiboyev Sardor O‘ktam o‘g‘li

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi



Annotatsiya. Maqolada R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o‘quvchisi Azizaxon Ro‘ziyevaning musiqiy ta’limi, fortepiano ijrochiligiga qiziqishi va respublika hamda xalqaro tanlovlarda erishgan natijalari yoritiladi. Yosh pianinochining ijodiy shakllanishi ustoz-shogird munosabatlari, ijro dasturi murakkabligi va sahna tajribasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tahlil maktab tavsiyanomasi va fortepiano pedagogikasiga oid adabiyotlarga tayanadi.

Kalit so‘zlar: Azizaxon Ro‘ziyeva, fortepiano ijrochiligi, yosh iste’dod, musiqa ta’limi, ustoz-shogird, ijodiy tanlov, sahna tajribasi.

Аннотация. В статье рассматриваются музыкальное образование, интерес к фортепианному исполнительству и конкурсные достижения Азизахон Рузиевой — учащейся Республиканской специализированной музыкальной школы имени Р. Глиэра. Ее творческое становление освещается в контексте педагогического взаимодействия, сложности репертуара и сценического опыта. Материал основан на рекомендации учебного заведения и литературе по фортепианной педагогике.

Ключевые слова: Азизахон Рузиева, фортепианное исполнительство, юное дарование, музыкальное образование, педагогика, конкурс, сценический опыт.

Abstract. The article examines the musical education, piano studies, and national and international competition achievements of Azizaxon Ro‘ziyeva, a student at the R. Glière Republican Specialized Music School. Her artistic development is considered in relation to teacher–student collaboration, the demands of advanced repertoire, and stage experience. The discussion draws on an institutional recommendation and literature on piano pedagogy.

Keywords: Azizaxon Ro‘ziyeva, piano performance, young musician, music education, piano pedagogy, music competition, stage experience.

Yoshlarning san’atga qiziqishini rag‘batlantirish, ularning iste’dodini aniqlash va izchil rivojlantirish masalasi O‘zbekistonda madaniyat sohasiga doir davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yo‘nalish faqat iqtidorli bolalarni saralash bilangina cheklanmaydi: ular uchun muntazam ta’lim, malakali pedagogik rahbarlik, ijro amaliyoti va o‘z mahoratini namoyon etish imkoniyatlarini yaratishni ham taqozo qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarorida musiqa va san’atga oid ko‘rik-tanlovlarni ta’lim muassasasidan respublika bosqichigacha tashkil etish mexanizmlari belgilangan. Bu kabi hujjatlar yosh ijrochilar uchun musobaqalashish va tajriba orttirish maydonlarining institutsional ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mazkur siyosatning keyingi yo‘nalishlari 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son Farmonda ham o‘z ifodasini topgan. Unda iste’dodlarni yuzaga chiqarish, ijodkorlarning xalqaro tanlovlarda ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va madaniyat ta’limini takomillashtirishga oid vazifalar nazarda tutilgan. Farmon ilovasida fortepiano ijrochiligi alohida ijodiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgani e’tiborlidir. Biroq san’atkorning muvaffaqiyatini faqat normativ hujjatlar yoki yaratilgan sharoitlar bilan izohlab bo‘lmaydi.



Muayyan natija ortida o‘quvchining shaxsiy mehnati, oila va maktab muhitining

qo‘llab-quvvatlashi, eng avvalo, pedagog bilan izchil olib borilgan ijodiy ish turadi. Shu jihatlar R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi o‘quvchisi Azizaxon Ro‘ziyevaning ijodiy yo‘liga nazar tashlaganda ham namoyon bo‘ladi. 2011-yil 28-oktabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan Azizaxon 2018-yildan mazkur ta’lim muassasasida maxsus fortepiano yo‘nalishi bo‘yicha Gulidjaxon Xasanova sinfida o‘qib kelmoqda. Uning ta’lim yo‘lida qariyb sakkiz yil davom etgan mashg‘ulotlar, izlanish va ijodiy tajriba jamlangan.

Pianinochi va pedagog Genrix Neygauz o‘zining “Об искусстве фортепианной игры” asarida badiiy obraz ustidagi ishni cholg‘uni o‘rganishning dastlabki bosqichlaridanoq boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, musiqiy ijroning mazmuni kuy, garmoniya, polifoniya, shakl hamda ifodaviy niyatning birligida ochiladi. Bu qarash yosh pianinochi tarbiyasiga ham bevosita taalluqli: dastlab texnik jihatdan sodda ko‘ringan asar ham musiqiy ma’no, xarakter va ohangdor aniqlikni talab qiladi. Demak, ijrochining kamoloti ijro dasturidagi asarlar soni bilan emas, ularning mazmunini ongli o‘zlashtirish darajasi bilan ham belgilanadi.



Azizaxonning o‘qish jarayonida ustoz bilan munosabati alohida o‘rin tutadi. Bilimga chanqoq yosh juda ham fortepiano chalishga qiziqadigan, tirishqoq, turli tadbirlarda o‘zini

namoyon etib kelayotgan o‘quvchi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Ustoz-shogird munosabati fortepiano pedagogikasida bir tomonlama ko‘rsatma berish jarayoni emas. O‘qituvchi ijroning texnik nuqsonlarini aniqlaydi, asar mohiyatini tushuntiradi, uslubiy va eshitish mezonlarini shakllantirishga yordam beradi; o‘quvchi esa shu tavsiyalarni o‘z mustaqil mashg‘ulotida sinovdan o‘tkazib, asta-sekin shaxsiy ijrochilik qarorlariga keladi. Ijrochi olim Neygauz “Учитель и ученик” bobida pedagogik samaradorlik uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvning ahamiyatiga to‘xtaladi[1]. Azizaxon va uning ustozi misolida ham e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat bir martalik yutuq emas, balkiy yillar davomida davom etgan o‘quv-ijodiy hamkorlikdir. Azizaxonning ijro dasturi haqida aniqlangan muhim holat shuki, u yoshiga nisbatan murakkab fortepiano asarlarini ijro etgan. Bu ma’lumot yosh ijrochining o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga intilganini ko‘rsatadi.

Murakkab asar bilan ishlash faqat tez sur’atdagi passajlarni aniq chalishdan iborat emas. Bunday ijro dasturida ijrochi fakturaning turli ovozlarini eshita olishi, mavzuning rivojlanishini kuzatishi, polifonik mustaqillikni saqlashi, ritmik barqarorlik va agogik erkinlik o‘rtasidagi mutanosiblikni topishi lozim. Asarning xarakteriga qarab legato, non legato va staccato kabi artikulyatsion usullar, pedallashtirish, dinamik reja hamda tembrga xos tasavvur ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu talablar umumiy kasbiy mezonlardir; ular Azizaxonning har bir ijrosida o‘ziga yarasha ko‘rinish bermoqda.

Neygauz texnik mahorat masalasini badiiy maqsaddan ajratmaydi: uning nazarida ijrochi nimani ifodalamoqchi ekanini qanchalik aniq anglasa, bunga qanday erishish yo‘lini ham shunchalik ravshanroq belgilay oladi. Bu fikr yosh pianinochi uchun ayniqsa dolzarb. Mashqlar, gammalar yoki etyudlar ijro apparatini rivojlantiradi, biroq ularning samarasi musiqiy vazifa bilan bog‘langandagina kengroq ma’no kasb etadi. Yoshiga nisbatan murakkab ijro dasturi ustida ishlash shuning uchun ham faqat kuchli texnik tayyorgarlik emas, xotira, diqqat, ichki eshitish va ijodiy mas’uliyatni birgalikda talab qiladi.

Fortepiano ta’limida sahna tajribasining o‘rni ham beqiyos. Sinfda puxta o‘rganilgan

[1] Нейгауз Г. Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. 5-е изд. М.: Музыка, 1988.

asar tinglovchi oldida boshqa sharoitda yangraydi: ijrochi hayajonni boshqarishi, asarning umumiy shaklini yodda saqlashi va musiqiy fikrning uzluksizligini ta’minlashi kerak. Shu bois konsert hamda tanlovlarda qatnashish ta’limning tashqi bezagi emas, balki amaliy sinov vositasi sifatida qaralishi mumkin. Azizaxonning ijro dasturida o‘zbek, rus va xorijiy kompozitorlar asarlari o‘rin olgan, televideniya va radio orqali konsert dasturlarida ham ishtirok etganligi bilan iste’dodi ajralib turadi.



Yosh pianinochining ijodiy natijalari 2023-yildan boshlab yanada aniqroq ko‘rina boshlaydi. O‘sha yili Toshkentda o‘tkazilgan “Biz baxtli bolamiz” xalqaro tanlovida Gran-pri bilan taqdirlangani uning ilk qayd etilgan yirik yutuqlaridan biridir. Xuddi shu yili Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahridagi “Jumeirah Sounds” VII xalqaro yosh ijrochilar tanlovida birinchi o‘rinni egallagan. 2024-yilda Toshkentdagi ikki turdan iborat “Grand Music Competition” xalqaro tanlovida ham birinchi o‘ringa sazovor bo‘lgan. Mazkur natijalar musobaqa geografiyasining kengaygani va yosh pianinochining o‘zini turli ijodiy muhitlarda sinab ko‘rganini ko‘rsatadi.

2025-yil Azizaxonning tanlovlar ro‘yxatiga yana ikki natijani qo‘shdi. Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Ohanglar jilosi” respublika yosh ijrochilar tanlovida u diplom bilan taqdirlangan; “Biz baxtli bolamiz” xalqaro tanlovida esa birinchi o‘rinni egallagan. Bu natijalarni bir xil mukofot sifatida ko‘rsatish biroz noto‘g‘ri bo‘ladi. Zero, yosh ijrochining

mehnatini qadrlash uchun yutuqlarni bo‘rttirishga ehtiyoj yo‘q.

2026-yilda uning ijodiy faoliyati yangi muvaffaqiyatlar bilan davom etgan. Xivada o‘tkazilgan “Khiva art fest-2026” xalqaro yosh ijrochilar tanlovida Azizaxon Gran-priga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, Toshkentda tashkil etilgan ikki turli “Oltin sadolar” xalqaro tanlovida ikkinchi o‘rinni egallagan. Turli yillarda qayd etilgan bu natijalar birgina muvaffaqiyat tasodifidan ko‘ra davomli o‘quv-ijodiy faollikni kuzatish imkonini beradi. Undan tashqari Azizaxon Ro‘ziyeva 2026-yilda “Iste’dodlar xaritasi” deb nomlangan respublika tanlovining fortepiano ijrochiligi yo‘nalishida tuman bosqichida g‘olib chiqib, shahar bosqichiga yo‘llanma ham olgan. Ushbu ma’lumot uning tanlovda muayyan bosqichni muvaffaqiyatli bosib o‘tganini ko‘rsatadi.

R. Glier nomidagi maktab rahbariyati va pedagoglar jamoasi Azizaxonni “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotiga nomzod sifatida tavsiya etganligi yosh ijrochimizga bo‘lgan ishonchni yuksakligidandir. Bu uning ushbu yuksak e’tirofga qanchalik loyiq ekanini ko‘rsatadi. Eng muhimi, bunday tavsiya uning oldidagi ijodiy vazifalarni tugallamaydi: ijro daturini kengaytirish, ijro uslublarini chuqur o‘rganish, musiqa matniga mustaqil munosabat shakllantirish va sahna madaniyatini takomillashtirish hamon dolzarb bo‘lib qoladi.



Yosh pianinochi haqidagi hikoyaning qimmati, aslida, diplomlar sonidan ham kengroq masalada namoyon bo‘ladi. Musiqa bilan muntazam shug‘ullanish bolaning o‘z oldiga

maqsad qo‘yishi, murakkab vazifani qismlarga ajratib hal etishi va natijaga sabr bilan intilishi uchun ijodiy muhit yaratadi. Konsertga tayyorlanish, o‘z ijrosini tinglash va pedagog ko‘rsatmalari ustida ishlash jarayonlari esa yosh musiqachining kasbiy ongini shakllantiradi. Azizaxonning hozirgacha bo‘lgan yo‘li ana shu uzoq, bosqichma-bosqich kechadigan kamolot jarayonining bir qismi sifatida e’tiborga loyiq.

Azizaxon Ro‘ziyevaning musiqiy ta’limi va ijodiy faoliyatiga oid hujjatlar uning ixtisoslashtirilgan fortepiano maktabida izchil tahsil olayotgani, murakkab ijro dasturini o‘zlashtirishga intilayotgani va 2023-2026-yillar davomida respublika hamda xalqaro tanlovlarda qator natijalarni qo‘lga kiritganini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar yosh musiqachining kasbiy shakllanish jarayonini kuzatish uchun muhim biografik dalillardir. Shu bilan birga, tanlovdagi mukofotlar ijroning barcha badiiy va texnik jihatlarini mustaqil ravishda isbotlamasligini unutmaslik kerak.

Fortepiano pedagogikasi nuqtayi nazaridan Azizaxon Ro‘ziyevaning ijodiy yo‘li iste’dod, muntazam mehnat, ustoz rahbarligi va sahna tajribasining uzviy uyg‘unligini namoyon etadi. Uning ijro ijro dasturiida Friderik Shopen etyudlari, Sergey Rahmaninov hamda Georgiy Mushel asarlarining o‘rin olishi yosh pianinochining murakkab ijrochilik vazifalarini o‘zlashtirishga, turli musiqiy uslublarning badiiy-ifodaviy xususiyatlarini anglashga intilishidan dalolat beradi. Respublika va xalqaro tanlovlarda erishilgan muvaffaqiyatlar esa uning izchil mehnati, musiqiy ta’limi va ijodiy izlanıshlari bilan bog‘liq muhim natijalardir. Azizaxonning bugungi yutuqlari uning san’atdagi ilk jiddiy marralari sifatida ahamiyat kasb etib, kelgusida professional ijrochi sifatida yanada yuksalishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi PF-103-son “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Нейгауз Г. Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. 5-е изд. М.: Музыка, 1988.

4. Гофман И. Фортепьянная игра; Ответы на вопросы о фортепьянной игре. М.: Классика-XXI, 1998.

